

G‘ulomqodirov Eldorjon Axmadjon o‘g‘li,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti
e-mail: eldorjongulomqodirov@gmail.com



O‘SMIRLIK DAVRI INQIROZIDA OILAVIY XAVFSIZ MUHITNING O‘RNI

Annotatsiya. O‘smirlik davri inqirozida oilaviy xavfsiz muhit shaxsni psixik rivojlanishda yangi bosqichga olib chiqadi. Ushbu maqolada o‘smirlik davri inqirozi va uning kechishidagi jins tafovutlari, ota-onalik uslublarini tadqiq etishga qaratilgan qiyosiy adabiyotlar tahlili va muallifning fikrlari bayon etiladi.

Аннотация. В период подросткового кризиса безопасная семейная среда выводит личность на новый этап психологического развития. В статье представлен анализ сравнительной литературы и взгляды автора на подростковый кризис и гендерные различия в его течении, а также на стили воспитания детей.

Annotation. A safe family environment during the adolescent crisis takes the individual to a new stage in psychological development. This article presents an analysis of comparative literature and the author's thoughts on the adolescent crisis and gender differences in its course, as well as the study of parenting styles.

Tayanch so‘zlar: o‘smirlik davri, o‘smirlik inqirozi, inqiroz bosqichlari, ota-onalik uslublari, avtoritar model, rasmiy model, demokrtatik model.

Ключевые слова: подростковый возраст, подростковый кризис, стадии кризиса, стили воспитания, авторитарная модель, авторитетная модель, демократическая модель.

Keywords: adolescence, adolescent crisis, crisis stages, parenting styles, authoritarian model, authoritative model, democratic model.

*Shaxs rivojlanishi
murakkab
diaklektik jarayon
hisoblanib, u
taraqqiyotning turli
yosh davrlarida
o'zining sifat
xususiyatlariga ega
bo'ladi. Ayniqsa
o'smirlik davri
o'tish bosqichi
sifatida, fiziologik,
emotsional,
intellektual va
sotsial o'zgarishlar
sodir bo'lishi
bilan boshqa yosh
davrlaridan ajralib
turadi.*

Kirish. Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907 sonli qarori ham mana shu ustuvor maqsad yo'lidagi amaliy harakatlardan biri hisoblanadi¹. Oila-ta'lim muassasalari-jamiyat zanjiri asosida yoshlarni hayotda o'z o'rnini topishga yordamlashish vaqt sinovidan o'tgan sharqona tarbiya usulidir. Albatta, bolalarning ijtimoiylashuvi, hayotiy ko'nikmalarni egallashi, tom ma'noda hazrati inson bo'lib kamol topishida ota-ona, ularning farzand tarbiyasidagi uslublari, oiladagi boshqa yaqinlarning o'rnini beqiyos. Ota-onalik uslublarini to'g'ri qo'llash, oiladagi sog'lom psixologik muhit yosh inqirozlarini yaxshi kechishida asosiy factor bo'lib hizmat qiladi.

Asosiy qism. Shaxs rivojlanishi murakkab diaklektik jarayon hisoblanib, u taraqqiyotning turli yosh davrlarida o'zining sifat xususiyatlariga ega bo'ladi. Ayniqsa o'smirlik davri o'tish bosqichi sifatida, fiziologik, emotsional, intellektual va sotsial o'zgarishlar sodir bo'lishi bilan boshqa yosh davrlaridan ajralib turadi. Psixologik adabiyotlarda o'smirlik davriga turlicha ta'riflar berilgan. Ingliz tilidagi "adolescent" (o'smir) so'zi lotincha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, "o'sish", "yetilish" ma'nolarini anglatadi². Ijtimoiylashuv va jismoniy kamolot aynan o'smirlik davriga xos xususiyat hisoblanib, endi o'smir bola emas, biroq katta odam, ham emas. Bu omillar bolada o'smirlik inqirozini keltirib chiqaradi. Inqiroz (arabcha orqaga ketish, pasayish, tugash, oxir bo'lish, bitish) – ma'lum bir voqelikning tabiat va jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlariga zid kelib qolishi, muayyan jarayonlarning vaqt o'tishi bilan yangicha talablarga javob bera olmasligi tufayli yuz beradigan tanglik holatini anglatadigan tushuncha hisoblanadi. O'smirlik davri inqirozi uning psixik rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, mustaqillika intilish yaqqol namoyon bo'ladi. Kelajak haqida ideal tasavvurlar, o'tmishni inkor etish, o'z kuch va imkoniyatlariga haddan tashqari yuqori baho berish o'smirlik davriga xos holat hisoblanadi. Yosh davrlarini tasniflash va o'smirlik davri yosh chegaralarini belgilashda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907 son Qarori (15.08.2018).

² APA dictionary of psychology/Gary R. VandesBos, editor chief. Second edition., New York, 2007. p. 1221.

psixolog olimlar turlicha yondashishgan. D.B.Elkonin tasnifi yetakchi faoliyat nazariyasiga asoslangan bo'lib, o'smirlik davrini 11-15 yosh oralig'ida belgilaydi. Yetakchi faoliyat turi sifatida muloqotni ta'kidlaydi. V.A.Krutetskiy tasnifida ham o'smirlik davri 11-15 yosh oralig'ini o'z ichiga oladi. E.G'.G'oziyev klassifikatsiyasi inson umrining barcha yosh davrlarini qamrab olgani bilan boshqalardan ajralib turadi. Ushbu olim tomonidan taklif etilgan davrlashtirishda o'smirlik davri 10-11 yoshdan 14-15 yoshgacha etib belgilangan³. Boshqa psixologlar tomonidan amalga oshirilgan klassifikatsiyalarda ham yosh chegarlarida tafovutlarni ko'rish mumkin. Ta'kidlash lozimki, o'smirlik davri yosh chegaralarini belgilashda yagona standart belgilanmagan.

Har bir yosh bosqichi o'zining yetakchi faoliyat turi, psixikaning sifat xususiyatlari, psixik jihatdan yangi sifatlarni hosil bo'lishi bilan ajralib turadi. Har bir davr o'zidan oldingi davr tomonidan tayyorlanib, uning asosida vujudga keladi va o'zidan keying davr uchun asos bo'ladi. Bir yosh davridan keying yosh davriga o'tish tinch yo'l bilan yoki inqirozlar bilan kechishi mumkin. Eng yorqin namoyon bo'ladigan inqiroz ko'rinishlari quyidagilar:

- bir yoshlik inqirozi;
- uch yoshlik inqirozi;
- o'smirlik davriga o'tishdagi inqiroz;
- o'rta yosh inqirozi.

O'smirlik davri inqirozi psixik jihatdan yangi xususiyatlarning paydo bo'lishi, jadal ijtimoiylashuv jarayoni, fiziologik o'zgarishlarning namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi. Bu inqirozdan muvaffaqiyatli o'tishi shaxs hayotining keying bosqichini belgilab beradi. Bu bosqich bolalik va yetuklik o'rtasidagi davr hisoblanib, psixikada revolyutsion o'zgarishlar yuzaga keladi. Bola jamiyatda o'zining ijtimoiy mavqeyini izlaydi, ijtimoiy hayot tajribasini to'playdi. Gormonal o'zgarishlar tashqi ko'rinishdagi o'zgarishlar, balog'atga yetish bilan birga keladi. O'smirlik davri inqirozining asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- tashqi ko'rinishga tanqidiy munosabat, uyatchanlik va o'ziga ishonchsizlikni rivojlanishi;
- kattalar bilan muloqotda qo'pollik;
- jinsiy mavzularga qiziqish;
- ota-onalar tomonidan qo'yilgan ta'qiqlar buzilish: chekish va spirtli ichimliklar ichish tajribasi;
- atrofdagi hamma narsaga befarqlik;

O'smirlik davri inqirozi psixik jihatdan yangi xususiyatlarning paydo bo'lishi, jadal ijtimoiylashuv jarayoni, fiziologik o'zgarishlarning namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi. Bu inqirozdan muvaffaqiyatli o'tishi shaxs hayotining keying bosqichini belgilab beradi.

³ Nishanova Z.T., Kamilova N.G., Ubaydullayeva D.U., Xolnazarova M.X.. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2018. – 188 b.

- shaxsiy chegara va ota-onalar bilan masofa saqlash;
- depressiv holatlar.

Psixologlar fikriga ko'ra, o'smirlik inqirozining belgilari ikkita asosiy yo'nalishda kichadi:

1. Mustaqillik inqirozi – bola qaysar, o'jarga aylanadi. Ota-onalar va kattalar tomonidan bolalar uchun o'rnatilgan tartiblarni mensimaslik, ularga itoat qilmaslik kuzatiladi. O'smirning barcha xarakatlari zahirida o'zining katta odam ekanligini tan oldirish mujdasi yotadi.

2. Bunga aksincha qaramlik inqirozida bola xatti-harakatlaridagi o'zgarishlari toatkorlik, qaramlik ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bola ma'suliyatdan, balog'atga yetishdan qo'rqadi, emotsional rivojlanishda regressiya yuz beradi.

Taniqli psixolog L.S.Vigotskiy o'zining ko'plab ilmiy ishlarida o'smirlik inqirozi mavzusini tadqiq qilgan. Olim inson hayotidagi ushbu davrni shaxs rivojlanishidagi eng muhim bosqich deb bilgan. Vigotskiy o'smirlik inqirozini 3 bosqichga ajratgan:

1-bosqich. Negativ(inqirozdan avvalgi) bosqich. Dastlabki belgilari 9-10 yoshda namoyon bo'lishni boshlaydi. Balog'atga yetishning dastlabki belgilari paydo bo'lishni boshlaydi. Ota-ona va bola o'rtasida muammolar yuzaga keladi. Bola kattalar tomonidan ruxsat berilgan chegaralarni kesib o'tadi, ota-ona qaramog'idan chiqishga harakat qiladi. Atrofdagi voqealarga yangi nuqtai nazardan qarashni boshlaydi.

2-bosqich. Krizis bosqichi (avj nuqtasi). 13 oshdan 15 yoshgacha davom etadi. Shu yoshdan boshlab bolaning xatti-harakatlari keskin o'zgaradi. Atrofdagi barcha jarayonlarga keskin munosabatda bo'ladi, harakatlarini oldindan aytib bo'lmaydi. Bolalar bor kuchi bilan o'zlarining individualligini ko'rsatishga va ota-onalaridan ajralib turishga harakat qiladi. Barcha holatlarga negativlik bilan boshlangan munosabat yangi ko'nikmalarni egallash bilan yakun topadi. 12-15 yoshda kognitiv funksiyalar rivojlanadi, yangi qiziqishlar va imkoniyatlar paydo bo'ladi.

3-bosqich. Inqirozdan keying bosqich. O'smirlik inqirozining ushbu bosqichida bola orttirgan ko'nikmalar asosida o'z meni bilan murosaga kelishni o'rganadi. O'smir o'z tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilishni shakllantiradi. Shaxsda hayotiy qadriyatlar shakllanadi, kelajak haqida tasavvurlar paydo bo'ladi. Ijtimoiy munosabatlarda, shaxslar xarakterida yuksak insoniy fazilatlar, axloqiy tamoyillarni, "yaxshi va yomon"ni ajratdi. Ushbu bosqich bilan o'smirlik inqirozi yakuniga yetadi⁴.

⁴ Выготский Л.С. Собрание сочинений: В 6-ти т. Т. 4. Детская психология/Под ред. Д.Б.Эльконина. – Москва: Педагогика, 1984. – 432 с.

***Taniqli psixolog
L.S.Vigotskiy
o'zining ko'plab
ilmiy ishlarida
o'smirlik inqirozi
mavzusini tadqiq
qilgan. Olim inson
hayotidagi ushbu
davrni shaxs
rivojlanishidagi
eng muhim
bosqich deb
bilgan. Vigotskiy
o'smirlik inqirozini
3 bosqichga
ajratgan:***

L.S.Vigotskiy o'smirlikdagi asosiy muammo sifatida ulardagi qiziqishlar va dominantlar ekanligini ta'kidlaydi. Sababi bu yoshga kelib bolaning avvalgi qiziqishlari o'zining aktualigini yo'qotadi. O'rniga yangi qiziqishlar paydo bo'ladi:

- “Egosentrik dominantlar” – o'smirning o'z shaxsiyatiga qiziqish.
- “Kelajakka qaratilgan dominantlar” – uzoq muddatli rejalar, kelajakka yo'naltirilgan manfaatlarning bugungi manfaatlardan ustunligi.
- “Sa'y-harakatlar dominantligi” – qarshilikka intilish, yengib o'tish, o'jarlik, norozilik, bezorilik bilan namoyon bo'ladigan ixtiyoriy xatti-harakatlar.

- “Romantik dominantlik” – tavakkalchilik, qahramonlikka intilish.

Yangi qiziqishlarning paydo bo'lishi eski qiziqishlarning o'zgarishiga va yangi motivlar tizimining paydo bo'lishiga olib keladi. O'smirdagi bu o'zgarishlar zanjir xususiyatiga ega bo'lib, yuqoridagi jarayonlar rivojlanishning ijtimoiy holati, yetakchi faoliyat turi va o'smirning yangi psixologik qiyofasi shakllanishiga olib keladi. O'smirlik inqirozini keltirib chiqaruvchi, uning xulq-atvoridagi o'zgarishlarga sabab bo'luvchi omillar bolaning qo'rquvi va o'ziga ishonchsizligi bo'lishi mumkin. O'smir atrofdagilar bilan o'z-o'zidan nizolashishni xohlamaydi. Balki bir necha jabhalarda o'z fikrlarini tushuntirish va boshqalarga yetkazishga xarakat qiladi. Bu quyidagi masalalarda yaqqol ko'zga tashlandi:

- “Men katta odamman”. O'smir ushbu yoshda kattalar tomonidan bo'ladigan bolalarcha munosabatni yoqtirmaydi. Ko'proq mustaqillikka intiladi.

- “O'z menini topish”. Jamiyatda o'z o'rnini topish, yorqin kelajakka qaratilgan fikrlar o'smirni ko'proq o'ylantirishni boshlaydi. Shu jarayonda bola shaxs sifatida shakllanadi.

- “Bu mening hududim”.
- “Mening o'z fikrim bor”.

O'smirlik inqirozi qiz va o'g'il bolalarda turlicha kechadi. Qizlarda bu jarayon ertaroq 10-11 yoshdan boshlanib, 16-17 yoshda tugaydi. Inqiorz qizlarda nisbatan keskin xatti-harakatlarsiz yumshoqroq tarzda kechadi. Agressiv haraktalar kamroq, passiv va yashirin tarzda kechadi. Bu asosan, ular ayollarga xos umumiy e'tirof qilingan xulq-atvor me'yorlarini buzayotganliklarini anglagan holda, keskin ichki ziddiyatni boshdan kechirishadi. Kattalarning e'tiroziga sabab bo'lmaslik uchun aksar qizlar inqiroz vaqtida o'z xatti-harakatlarini nazorat qiladi. O'smirlik inqirozining qizlarga xos jihatlaridan yana biri shundaki, ular tashqi ko'rinishning nomukammalligiga e'tibor berishadi. Ovqatlanmaslik, noto'g'ri diyeta kabi usullar bilan erishib bo'lmaydigan go'zallik idealiga intilishlari samarasiz bo'ladi.

Yangi qiziqishlarning paydo bo'lishi eski qiziqishlarning o'zgarishiga va yangi motivlar tizimining paydo bo'lishiga olib keladi. O'smirdagi bu o'zgarishlar zanjir xususiyatiga ega bo'lib, yuqoridagi jarayonlar rivojlanishning ijtimoiy holati, yetakchi faoliyat turi va o'smirning yangi psixologik qiyofasi shakllanishiga olib keladi.

***O'smirning
rivojlanishi,
ijtimoiylashuvi
va turli ijtimoiy
rollarni bajarishda
birlamchi
ko'nikmalarga
ega bo'lishda oila
asosiy o'rin tutadi.
O'smirlarning
kognitiv va
emotsional
rivojlanishi uchun
qarindoshlari va
ota-onalar bilan
munosabatlar
asos bo'lib,
uning atrofdagi
insonlarga
bo'ladigan
munosabatini
belgilab beradi.
Voyaga yetgandan
keyin ham bu omil
o'zining ta'sirini
saqlab qoladi.***

O'g'il bolalardagi o'smirlik inqirozii 11-12 yoshdan boshlanib, 17-18 yoshda tugaydi. Ular juda tez rivojlanadi, erkaklar xos xulq-atvor ko'rinishlarini o'zida shakllantira boshlaydi. Ammo jarayon noto'g'ri xatti-harakatlar orqali ifoda etadi. Masalan, muammolarni kuch bilan hal qilishga intilish, ojiz ko'rinmaslik uchun his-tuyg'ularini yashirish ortidan yaqinlari bilan munosabatda muammolar yuzaga kelishi shular jumlasidan hisoblanadi. O'g'il bolalar g'azabni namoyon qilishi mutlaqo to'g'ri deb o'ylashadi va g'azablanishni tashqi omillarga, vaziyatga bog'lashadi. Bola ota-onalar, yaqinlar tomonidan hurmat, tushunish, mehrni yetishmasligi kabi qondirilmagan ehtiyojlariga negativ munosabat bildiradi. O'smirlardagi negativizm voqelikka isyon bo'lib, aktiv va passiv holatda namoyon bo'ladi.

O'smirning rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va turli ijtimoiy rollarni bajarishda birlamchi ko'nikmalarga ega bo'lishda oila asosiy o'rin tutadi. O'smirlarning kognitiv va emotsional rivojlanishi uchun qarindoshlari va ota-onalar bilan munosabatlar asos bo'lib, uning atrofdagi insonlarga bo'ladigan munosabatini belgilab beradi. Voyaga yetgandan keyin ham bu omil o'zining ta'sirini saqlab qoladi. O'smirning ko'z o'ngidagi dunyo qiyofasi uning oila haqidagi tasavvurlaridan kelib chiqadi. O'smirlar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatda muammolarning asl sababi kattalar o'smirning ichki dunyosini tushunmasliklari, uning tajribasizligi haqida yanglish tushuncha, muayyan harakat motivlari, intilishlari va qadriyatlarini noto'g'ri tushunishlari hisoblanadi. O'smirlik inqirozi vaqtida uning oilasi har tomonlama psixologik yordamga muhtoj. Sababi haddan ortiq himoya qilish, qat'iy talablar qo'yish kabi avval qo'llanilgan tarbiya metodlari o'zining samarasini yo'qotadi. Ota-onalar o'smirdagi shiddatli fiziologik va psixik rivojlanish omillarini e'tibordan chetda qoldiradi. O'smirlik inqirozi qanday kechishi ko'pincha ota-onalar va bola o'rtasidagi muloqot modellariga bog'liq bo'ladi. Kattalar bu modellarni bolaligidan meros qilib oladi va shu asosda bolalar bilan munosabat o'rnatadi.

Avtoritar modelda ota-ona va bola o'rtasida emotsional va status jihatidan masofa saqlanadi. Ota-ona bola bilan muloqotda yuqoridan, hokimiyyat pozitsiyasidan boshqaradi. Bu masofa ota-onaning farzandga bo'lgan munosabatiga qarab yanada ortib boradi. Qat'iy tartib-intizom, so'zsiz bo'ysunish, qat'iy qoida va cheklovlar asosida bolaga muomila qilinadi. Bola tarbiyada jazoga o'rganib qoladi. O'smirning sevimli mashg'ulotlarini tanqid qilish, do'stlarini yomonlash, his-tuyg'ulariga e'tiborsizlik kabi omillar emotsional masofani orttiradi. Qat'iy cheklov va chegaralar, jazo, bola manfaatlarini e'tiborga olmaslik bu modelga

xos jihatlardan hisoblanadi. Bolalik davrida bu model samara berishi mumkin. Ammo o'smirlik davriga o'tib itoatkor bolalar ota-onalariga isyon qila boshlaydi. O'smirlar o'zlarini eshitmasliklari va qiziqishlariga e'tiborsizliklarini tushungandan boshlab, o'zlarini ota-onasiga butunlay yopib oladi, munosabatlarda muloqotni cheklaydi. O'smir o'zi haqida kamroq gapiradi, ota-onalar boladan o'zi haqida ko'proq ma'lumot olish uchun yana bosimni kuchaytiradi. Bu choralar vaziyatni yana ham murakkablashtiradi.

Bola bilan bo'ladigan munosabatlarda avtoritar uslubdan foydalanadigan ota-onalar o'z qarorlarini bolaga qo'pol tarzda majburlashga intiladi. Avtoritar boshqaruv usulida tahdid, ta'qiq, tanqid, manipulyatsiya, qo'rquv, aybdorlik orqali bolaga ta'sir o'tkaziladi. Ota-ona bolaga empatiya, mehr, g'amxo'rlik o'rniga baland ovozda qat'iy ko'rsatmalar berish bu usulga xos hisoblanadi. Ota-onalarning e'tibori o'zlarining qadriyatlarini, qiziqishlari va istaklariga qaratilgan. Bolaning xatti-harakatlarini to'liq nazorat qiladi, tashabbuslari rad etiladi. Ular fikricha, bola zaif, nochor hisoblanib, uning vazifasi faqat aytilgan vazifani bajarishdan iborat. Bolaning odobli va itoatkor bo'lishi juda muhim, chunki kattalar "hayotni yaxshiroq biladi va yomon maslahat bermaydi" degan tushuncha hukmron bo'ladi. Avtoritar uslub samara bermaganda ehtimoliy zo'ravonlik ko'rinishlariga olib keladi. Bola itoatsizlik qilsa, jismoniy jazo yoki ma'naviy bosim o'tkaziladi. Avtoritarizm orqali ota-ona o'zlari uchun qulay bo'lgan va o'z umidlarini oqlashga harakat qiladigan shaxsni rivojlantirmoqchi bo'ladi. Avtoritar tarbiya turi bola uchun juda ko'p salbiy narsalarni keltirib chiqaradi. O'z fikriga ega bo'lmagan, shaxs sifatida kamol topmagan insonlar mana shu uslub samarasidir. Ular kasb tanlash, maktabdan keying katta hayotda juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelishadi. Tanqid tufayli bola tortinchoq va uyatchan bo'lib ulg'ayadi. Ular o'zlarini past baholaydi, o'zlarini ko'rsatishdan qo'rqadi va muvaffaqiyatsizlikni oldindan bashorat qiladi. Yuqoridagi kabi bolalar o'ziga ishonchni tashqaridan izlaydi. Har bir xatti-harakatiga tashqaridan munosabat kutadi. O'zlagalar fikriga bog'lanib qoladi. Bundan tashqari boladagi ikkiyuzlamachilik, ma'suliyatdan qochish, o'zini jabrlanuvchi roliga ko'rsatish avtoritar uslubning oqibatlaridan hisoblandi.

Rasmiy modelda ota-onalar, asosan, ish va kundalik muammolar bilan band bo'ladi. Bola bilan bo'ladigan munosabatlar o'rtacha, hamma kabi oddiy munosabtlar shaklida kechadi. Bu uslub avtoritar uslubga qarama-qarshi bo'lib, unda kattalar qat'iy ko'rsatma bermaydi, ruxsat etilgan narsalarning aniq chegaralarini belgilamaydi. Erkinlik va tenglik

Bola bilan bo'ladigan munosabatlarda avtoritar uslubdan foydalanadigan ota-onalar o'z qarorlarini bolaga qo'pol tarzda majburlashga intiladi. Avtoritar boshqaruv usulida tahdid, ta'qiq, tanqid, manipulyatsiya, qo'rquv, aybdorlik orqali bolaga ta'sir o'tkaziladi.

Navbatdagi keng tarqalgan modellardan biri “demokratik model” hisoblanadi. Demokratik ta’lim uslubi ham avtoritet deb ataladi. Ehtimol, bu huquqlarni hurmat qilish, o‘ziga xoslikni tan olish va mas’uliyatni tarbiyalashga asoslangan bola uchun eng qulay ta’lim uslubidir. Ota-ona va bola munosabatlari muhookama va dialogga asoslangan.

birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Bu uslubda ayniqsa gipoproteksiya yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu tushuncha ota-ona tomonidan bolaning barcha istak, tilak va ehtiyojlari ko‘r-ko‘rona, tanqid va mulohazasiz qindirishga intilishda namoyon bo‘ladi. Bolani har qanday to‘siq va qiyinchiliklardan himoya qilish, uning barcha istaklarini joyida bajo keltirish, erkalatish, oddiy yutuqlaridan quvonish, xatolarini sezmaslik gipoproteksiya belgilaridandir. Bolaga nisbatan g‘amxo‘rlik ovqatlanish, kiyinish kabi kundalik ehtiyojlarni ta‘minlash orqali ko‘rsatiladi. Ota-onalar bolani nazorat qilmaydi, ularni qiynayotgan emotsional muammolarni hal qilishda ishtirok etmaydi. Emotsional yaqinlikdan mahrum bo‘lib o‘sgan bolalar o‘smirlik davriga o‘tib ko‘proq kattalar e‘tiborini jalb qilishni boshlaydi. Ammo ko‘pincha bu modelda bola izolyatsiyada qolib ketadi. Oiladagi nizolarsiz munosabatlarga qaramay, bola o‘zini yolg‘iz his qiladi. Ota-ona bolaning ishlariga aralashmaydi, muhim masalalarda bola ota-onalarga maslahat uchun murojaat qilolmaydi.

Navbatdagi keng tarqalgan modellardan biri “demokratik model” hisoblanadi. Demokratik ta’lim uslubi ham avtoritet deb ataladi. Ehtimol, bu huquqlarni hurmat qilish, o‘ziga xoslikni tan olish va mas’uliyatni tarbiyalashga asoslangan bola uchun eng qulay ta’lim uslubidir. Ota-ona va bola munosabatlari muhookama va dialogga asoslangan. Bu modelda ota-onalarning hamaiyati juda yuqori hisoblansa-da, erta bolalik davridan bolaning fikri va istaklari inobatga olinadi. Bolaning fikrini tinglashadi, uning qiziqishlarini u yoki bu tarzda hurmat qilishadi. Oilada sayohat, teatr, kino kabi madaniy tadbirlar orqali norasmiy muloqot davom etadi. Ushbu modelda ota-onalar farzandlarining o‘smirlik inqirozini tayyorlangan holda kutib oladi. Bu uslub ota-onadan tayyorgarlik va ma’suliyat talab qiladi. Agar kattalar bunga tayyor bo‘lmasa, ular uchun “eng yaxshisi” avtoritar (men aytganimdek bo‘ladi) yoki liberal (xohlaganingizni qiling) tarbiya uslubi bo‘ladi.

Ota-onalar hayotlarida huquq va ehtiyojlari teng bo‘lgan boshqa shaxs paydo bo‘lganini tushunishadi. Demokratik ta’lim uslubi quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

1. Bolaga hurmat, uning individual xususiyatlarini, qiziqishlari va istaklarini tan olish, oilada o‘zaro tushunish.
2. Qoidalar, rejim va intizomning mavjudligi. Qoidalar avtoritar turdagi kabi majburiy ravishda qo‘yilmaydi, balki tushuntiriladi. Shuning uchun demokratik ota-ona uslubi suhbat, tushuntirishlar va muhokamalar bilan tavsiflanadi.
3. Jazolar va mukofotlar muvozanatlashgan.

4. Kattalarning shaxsiy namunasi tarbiyaning asosidir. Farzand ta'lim beradigan, lekin ularning tamoyillariga amal qilmaydigan otalarga ishonmaydi.

Belgilangan qoidalarga muvofiq yashash, tartib va intizomga rioya qilish kuchli irodali shaxsni rivojlantiradi, kelajakka ishonchni uyg'otadi. Jazo va mukofotning muvozanati mas'uliyat va javobgarlikni shakllantiradi. Hurmat muhitida o'sgan bolalar o'zlarini etarli darajada hurmat qiladilar. Rivojlangan empatiya kuchli va sog'lom munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi.

Yakuniy qism. O'smirlik davrining boshqa yosh davrlariga nisbatan o'ziga xos jihati – uning o'zini o'zi anglash sohasida tub o'zgarishlar bo'lib, bu o'zgarishlar o'smirning keying hayotida shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu davrda o'smir ko'tarinki qo'zg'uvchan, impulsiv bo'lib qoladi. O'smirlik davridagi psixik rivojlanishning asosiy leytmotivi hali yetarlicha turg'un bo'lmagan o'z-o'zini anglash, “Men” konsepsiyasining o'zgarishi, o'z-o'zini va o'z imkoniyatlarini tushunishga intilish kabilar xizmat qiladi. O'smirlar boshqalarga o'xshamasligi, individualligini anglay boshlaydi va asta-sekin o'zining shaxsiy tushunchasini shakllantiradi. Rivojlanishning bu bosqichida klassik psixoanalizda ta'kidlanganidek, bolada otasiga nisbatan “sevgi va rashk” tuyg'ulari uyg'onadi. Maslaning muvaffaqiyatli yechimi uning o'z tengqurlari ichida sevgi obyektni topishiga bog'liq. O'smirdagi psixik va fiziologik o'zgarishlar natijasida yangi sezgi va istaklar, narsalarga yangicha qarash, hayotga yangicha munosabat shakllanadi. O'smirlar o'zlari uchun hayoliy ideal oila, din, jamiyatni yaratishi mumkin. U sabrsiz idealist bo'lib, idealdagilarni amalda yaratish, qo'llash nazariy jihatdan tasavvur qilishdan qiyin emas, deb hisoblaydi. “Men” konsepsiyasining ijobiy jihatlari va hayotdagi chalkash rollarning salbiy jihatlari o'rtasida o'zgarib turuvchi o'smir psixikasi bu jihatdan atrof-muhitga bog'liq hisoblanadi. U maktab o'quvchisi, farzand, do'st, nabira, aka-uka, opa-singil sifatida o'zi haqidagi barcha rollarni birlashtirishi kerak bo'ladi. Rollarning barchasini bir butun holga keltirish, ularni tushunish, o'tmishi bilan bog'lashi va shu asosda kelajagini rejalashtirishi kerak. Agar psixosotsial identifikatsiya jarayonini muvaffaqiyatli boshdan kechirsa, o'tmish, hoziri va kelajagi haqida yaxlit tasavvur hosil bo'ladi. O'smirlik davri inqirozi boshqa yosh davri inqirozlaridan farqli ravishda, ota-onaning ta'siri minimallasadi. Psixik rivojlanishdagi inqirozning borishi va natijalariga bilvosita ta'sir etishi mumkin.

O'smirlik davrining boshqa yosh davrlariga nisbatan o'ziga xos jihati – uning o'zini o'zi anglash sohasida tub o'zgarishlar bo'lib, bu o'zgarishlar o'smirning keying hayotida shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu davrda o'smir ko'tarinki qo'zg'uvchan, impulsiv bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907 son 15.08.2018/Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
2. APA dictionary of psychology/Gary R. VandesBos, editor chief. Second edition., New York, 2007. P. 1221.
3. Nishanova Z.T., Kamilova N.G., Ubaydullayeva D.U., Xolnazarova M.X.. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2018. – 188 b.
4. Выготский Л. С. Собрание сочинений: В 6-ти т. Т. 4. Детская психология/Под ред. Д. Б. Эльконина. – Москва: Педагогика, 1984. – 432 с.
5. www.lex.uz